O‘ZBEK TILIDAGI QADIMGI SUG‘DIY ASOSGA EGA SO‘ZLAR

Ilmiy rahbar: t.f.d, professor
Is’hoqov Mirsodiq Mirsultonovich
Muallif: ***Norsafarov Oybek Xurshid o‘g‘li***
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari yo‘nalishi 1- kurs magistranti
oybeknorsafarov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola o‘zbek tili leksikasida saqlanib qolgan qadimgi sugʻdiy qatlamni aniqlash va ilmiy asosda tavsiflab berishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda an’anaviy leksikografiyada forsiy yoki umumeroniy qatlamga nisbat berilgan bir qator so‘zlar sugʻd yozma yodgorliklaridagi attestatsiyalangan shakllari bilan qiyosiy-tarixiy usul yordamida tahlil qilindi. Tadqiqot fonetik, semantik va geografik mezonlarni qo‘llash asosida ushbu so‘zlarning sugʻdiy tildan bevosita yoki sugʻdiy vositachilik orqali o‘zbek tiliga o‘tkanligi haqidagi farazni ilgari suradi.

Kalit so‘zlar: sugʻdiy leksik meros, o‘zbek tili etimologiyasi, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik.

Abstract: This article is devoted to identifying and scientifically describing the ancient Sogdian layer preserved in the lexicon of the Uzbek language. In the study, a number of words that have traditionally been attributed in lexicography to the Persian or general Iranian layer were analyzed through the comparative-historical method by comparing them with their attested forms found in Sogdian written monuments. Based on the application of phonetic, semantic, and geographical criteria, the research puts forward the hypothesis that these words entered the Uzbek language either directly from the Sogdian language or through Sogdian mediation.

Keywords: Sogdian lexical heritage, etymology of the Uzbek language, comparative-historical linguistics.

Kirish. Tilshunoslik tarixida so‘zlarning bir tildan ikkinchi tilga o‘tish yo‘llarini aniqlash masalasi hamisha murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib kelgan. O‘zbek tili leksikasini o‘rganishda an’anaviy tasnif asosan uchta katta manba – turkiy, arabiy va fors-tojik qatlam atrofida shakllangan. Biroq bu qatlamlar ortida to‘rtinchi, ko‘p hollarda e’tibordan chetda qolgan manba yotadi. Bu manba qadimgi sug‘diy til asosida shakllangan *“sug‘diy leksik meros”*larimizdir. O‘zbek tilida saqlanib qolgan sug‘diy leksik merosni aniqlash masalasi o‘ziga xos metodologik qiyinchiliklar tug‘diradi. Sababi sug‘d tili qadimgi eroniy til oilasining sharqiy shoxobchasiga mansub bo‘lib, u fors tili bilan bir ildizdan ya’ni umumeroniy asosdan tarqalgan. Bu holat tadqiqotchi uchun jiddiy metodologik savol tug‘diradi. Tadqiq qilinayotgan mazkur so‘z o‘zbek tiliga bevosita sug‘d tilidan o‘tganmi yoki umumeroniy ildiz hisoblanmish fors-tojik qatlam orqali kelganmi? Ushbu ikki yo‘lni bir-biridan farqlash ko‘pincha yozma manbalar, toponomik ma’lumotlar va qiyosiy tilshunoslik usullari yordamida amalga oshiriladi. Biroq sug‘diy yozma yodgorliklarning cheklanganligi va bevosita o‘zbek-sug‘diy leksik aloqalarni tasdiqlovchi manbalarning kamligi bu ishni yanada murakkablashtiradi.

Ammo yuqorida qayd etilgan metodologik murakkabliklar tadqiq etilajak so‘zlarning sug‘d tiliga aloqasini mutlaqo inkor etmaydi. Umumeroniy ildizga mansub so‘z fors-tojik va sug‘d tillarida bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘lgan taqdirda ham, uning o‘zbek tiliga o‘tish yo‘li hali ochiq masala bo‘lib qolaveradi. Yurtimiz hududida sug‘diylar forsiy ta’sirdan ancha oldin turkiy aholining tillari bilan chambarchas munosabatda bo‘lgan. Shu tariqa ko‘plab so‘zlar o‘zbek tiliga forsiy vositachilikdan mustaqil ravishda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘d tilidan o‘tgan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Bundan tashqari, fonetik dalillar ham e’tiborga loyiq. Agar o‘zbek tilidagi so‘zning fonetik tuzilishi forsiy shakldan ko‘ra sug‘diy shaklga yaqinroq bo‘lsa, bu bevosita sug‘diy ta’sir izini ko‘rsatuvchi muhim argument bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, so‘zning o‘zbek shevalarida, ayniqsa Buxoro va Samarqand kabi tarixan sug‘diy hudud hisoblangan joylardagi shevalarda saqlanib qolishi ham uning sug‘diy qatlamga mansubligi haqidagi farazni kuchaytiradi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, o‘zbek tili leksikasining bir qismi qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. An’anaviy tilshunoslikda forsiy yoki turkiy qatlamga mansub deb tasnif etilgan ayrim

so‘zlar, aslida, sug‘diy tilga borib taqalishi yoki kamida sug‘diy vositachilik orqali o‘zbek tiliga o‘tgan bo‘lishi mumkin. Bu farazni ilgari surish uchun bir necha asosli sabablar mavjud.

Birinchidan, sug‘diy til forsiy tilning bevosita qarindoshi bo‘lganligi sababli, ikkala tilda umumiy ildizga ega so‘zlar ko‘p uchraydi. An’anaviy tadqiqotlarda bunday so‘zlar odatda forsiy orqali kelgan deb qabul qilingan, ammo fonetik va geografik dalillar boshqa yo‘lni, ya’ni sug‘diy yo‘lni ham ko‘rsatishi mumkin. Ikkinchidan, o‘zbek tilining shakllangan hududi Movarounnahr aynan sug‘diy sivilizatsiyaning markazi bo‘lgan. Bu hududda forsiy ta’sir kuchayishidan ancha oldin sug‘diy leksika mahalliy turkiy tillar bilan aralashgan va ularning tarkibiga singib ketgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada *"sug‘diy meros"* tushunchasiga ehtiyotkorlik bilan yondashildi. Tahlilga jalb etilgan so‘zlarning sug‘diy manbalarda qayd etilganligi, uning forsiy shaklidan fonetik (tovush o‘zgarishi), yoki semantic (ma’no o‘zgarishi) jihatdan farqlanishi, hamda o‘zbek tili yoki uning shevalari bilan sug‘d tili o‘rtasidagi bevosita aloqani ko‘rsatuvchi qiyosiy dalillarning mavjudligi kabi mezonlar qo‘llanildi. Ushbu mezonlarga javob bergan so‘zlar sug‘diy, to‘liq javob bera olmagan so‘zlar esa "umumeroniy qatlam" yoki "fors-tojik vositachiligi orqali o‘tgan leksika" sifatida tasniflandi.

Muhokama va natijalar. Hozirgi o‘zbek tilida fahmsiz, gapni sekin ilg‘aydigan kishilarga nisbatan *g‘alcha* sifati ishlatiladi. Gap shundaki bu so‘zning asosida qadimgi sug‘diy *γr*[1]*- (tog‘) + cha* (kichraytirish/nisbat qo‘shimchasi) *γar-cha* yotadi *va tog‘lik* degan ma’noni anglatadi. G‘alcha so‘zi Markaziy Osiyo tilshunosligida ikki qatlamli ma’noga ega. 1) bu so‘z an’anaviy ravishda tog‘lik, Pomir vodiylarida yashagan ko‘chmanchi yoki qishloqlik aholini anglatgan - ya’ni tekislikdagi shaharlarga nisbatan, tog‘li, til bilmaydigan (tog‘ qishloqlarida yashovchi aholi o‘ziga xos, tabiiy izolyatsiyada yashaganligi tufayli odatda o‘z tilidan bo‘lak tilni bilishmagan) xalq ma’nosida ishlatilgan. 2) Ilmiy doiralarda XIX va XX asr boshlarida G‘arb tadqiqotchilari orasida Pomir tog‘lari

[1] Gharib B.Sogdian dictionary. -Tehran.:Farhangan Publications,1995. P-165. 4168

aholisining tillar oilasi ba’zan *g‘alcha tillari* (Ghalchah languages) deb atalgan. Bu atamani ilmiy muomalaga birinchi bor kiritgan olim ingliz tadqiqotchisi Robert B. Shaw bo‘lgan. Robert Shaw o‘z tadqiqotida[2] Vaxon, Sarikoli va Shug‘non kabi tillarni tavsiflashda ushbu tushunchadan foydalangan. Ammo Bartold[3] va boshqa olimlar ushbu atamani salbiy ma’no kasb etgani uchun muammoli deb hisoblagashgan. Sovet tilshunosi I.I.Zarubin 1924-yilda Pomir tillari atamasini taklif qiladi. Keyinchalik bu atama ilmiy muomaladan chiqarilgan. Pomir tog‘laridan shaharlarga kelgan aholiga nisbatan ularning xususiyati (til bilmasligi) va yashagan geografik hududini anglatgan *g‘alcha* etnotoponimi keyinchalik mahalliy aholi tiliga o‘tib ma’lum tipdagi insonlarni tasniflash uchun ishlatilgan. G‘alcha etnotoponimi garchi umumeroniy ildizlarga ega bo‘lsada yuqorida ta’kidlangan fonetik va geografik dalillar bu so‘zning sug‘diy yo‘l orqali o‘zbek tiliga o‘tganligini isbotlashi mumkin. Bugungi kunda O‘zbekistonda ham bir qancha G‘alcha nomi bilan ataladigan qishloqlarni uchratishimiz mumkin.[4]

G‘isht so‘zi butun Markaziy Osiyo va Eron xalqlari tillarida uchraydi. Sug‘diy tili va Sug‘d madaniyati bu so‘zning tarixiy uzatilishida markaziy o‘rin tutadi. Bu so‘zning Proto-hind-eron *ištya,*(H)išti-*(H)išta,* avestocha *ištiia,* manixey-parfyancha *hištīg*, xorazmcha *‘štyc*, sug‘diy *št-išt,* o‘rta fors (pahlavi) *xišt*, yangi fors/tojik *xisht*, o‘zbekcha *g‘isht* taraqqiyot yo‘li ma’lumdir.[5] Sug‘ d tilining yangi bosqichi sifatida e’tirof etiladigan Yag‘nob tili lug‘atlarida ham o‘zbek shevalarida uchraydigan so‘zlar mavjud. Xususan Buxoro va voha tojik lahchasida *yaxshi* ma’nosini anglatuvchi sug‘diy *nayz* so‘zi mavjud bo‘lib, bu so‘z fors lug‘ atlarida faqatgina XI asrdan boshlab uchraydi.

Voha tojiklari tilida *qishloq* manosini anglatuvchi *deha* so‘zi ham juda qadimiy

[2] Shaw, R.B.On the Ghalchah Languages (Wakhi and Sarikoli). Journal of the Asiatic Society of Bengal, XLV. Calcutta, 1876. P – 139 - 278.

[3] Бартольд В. В. Сочинения. Т. II. Москва: Издательство восточной литературы, 1963. С – 457, 458.

[4] Xudoyberganov R. X, Uluqov N va boshqalar(mualliflar jamoasi). O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati.-Toshkent.:Donishmand ziyosi,2022. B-553.

[5] Буянер Д. Б. Этимология некоторых индоиранских культурных терминов и теория индоиранского субстрата. I. *Hišti- / Hišta- ‘кирпич’*.Журнал: Индоиранские языки 2 (1), 2026. С - 129-166.

ildizlarga ega. Bu so‘z Avesto kitobida *daxiiu-*, *daŋhu-* shaklida kelgan bo‘lib, o‘z hududini himoya qilish uchun birlashgan qabilalar ittifoqini anglatuvchi *dahyu* so‘ziga borib taqaladi.[6] Qadimgi forscha *dahyu,* o‘rta forscha (pahlaviy) *deh,* sug‘d tilida *dyx’w*[7] / *dyxw* shakllari mavjud. Ko‘rinib turibdiki sug‘diy fonetik shakllanish boshqa eroniy tillardagidan farq qiladi. Shu jihatdan yondashilib, geografik omillar va forsiy xalqlarning markaziy osiyo xalqlari bilan aloqalari sug‘diylarga nisbatan ancha kech ekanligi hisobga olinsa, bu so‘z erkin rivojlanib hozirgacha aholi o‘rtasida foydalanilmoqda deb xulosa qilsak bo‘ladi. Bu so‘zning semantik evolyutsiyasiga qaraydigan bo‘lsak qadimgi davrda katta hudud, o‘rta asrlarda ma’muriy birlik, hozirgi davrda kichik qishloq ma’nolarigacha o‘zgarib kelgan. Bu hodisa tilshunoslikda ma’no torayishi (semantic narrowing) deb ataladi. Bugungi kunda O‘zbekiston tumanlaridan birining nomi Denov (dehi + nov, yangi qishloq) deb atab kelinmoqda.[8]

Vohaning tojikzabon aholisi toshni *sang* deb atashadi. *Snk* iborasi sug‘d buddaviy matnlarda *snk’,* moniy hujjatlarida *sng,* xo‘tancha *samgga,* yag‘nobiycha *sank* shakllarida tosh manosini ifodalab kelgan.[9] Shuningdek hozirda o‘zbek tilida faol qo‘llanadigan osmon so‘zining sug‘dcha *sm’n, ‘sm’nc*, *asmanic*,[10] xazon so‘zining *γ’zn*, durust so‘zining *dwrt’, druta,* loy so‘zining *γr’y,*[11] *g‘iroy* kabi shakllari mavjuddir.

Baland so‘zini ham sug‘diy ta’sir orqali o‘zbek tiliga kirgan so‘z desak bo‘ladi. *Baland* so‘zi hind-evropa tillari oilasining eroniy tarmog‘iga mansub bo‘lib, sug‘d tilida ham mavjud bo‘lgan qadimgi *barz-* (yoki brzh) o‘zagidan kelib chiqqan. Mazkur so‘z sug‘d tilida *brzy*, *βrz’y* shakllarida uchraydi va qadimgi eroniy tillarda yuqori, ulug‘,

[6] Gnoli, Gherardo. "DAHYU." *Encyclopaedia Iranica*. Published December 15, 1993. https://doi.org/10.1163/2330-4804_EIRO_COM_7959

[7] Gershevitch I.A. Grammar of Manichean Sogdian. Oxf., 1954. –P. 29, 61.

[8] Кораев С. Ўзбекистон вилотлари топонимлари.-Тошкент.:O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi,2005. 126-b.

[9] G‘oyibov B.Sug‘d tarixidan lavhalar.-Samarqand.:SamDu,2020.135 b.

[10] Gharib B.Sogdian dictionary. -Tehran.:Farhangan Publications,1995. P-355. 8813

[11] Gharib B.Sogdian dictionary. -Tehran.:Farhangan Publications,1995. P-167. 4192

baland degan ma’nolarni anglatgan.[12] Sug‘d tilida ushbu o‘zak asosida sifat yasovchi qo‘shimchalar yordamida *βar-nd* yoki *βurz-and* kabi shakllar hosil qilib g‘arbiy eroniy tillarga (masalan, pahlaviy yoki qadimgi fors tillarida) bu so‘z *buland* shaklida, sug‘diy talaffuz ta’sirida turkiy tillarga *baland* bo‘lib kirgan bo‘lishi mumkin. Sug‘d tilida *"β" (beta)* harfi ko‘pincha *"v"* yoki *"b"* tovushini bergan. Qadimgi eroniycha *barz-* o‘zagi sug‘diy dialektda *βrz-nt* shakliga kirganligini hisobga olsak, keyinchalik turkiy talaffuzda *"r"* tushib qolishi va *"v/b"* almashinuvi natijasida *baland* ko‘rinishini olganligi ehtimoldan uzoq emas.

Xursand so‘zi ham yuqoridagi so‘zlar kabi qadim sug‘diy ta’sirlarga ega. Bu so‘z ikki qismdan iborat bo‘lib *xur* (xvar) eroniy/sug‘diy tilida quyosh, nur, yorug‘lik ma’nosini anglatadi.[13] *Sand (-and)* qismi sug‘d tilida *o‘xshash, kabi* yoki holatni ifodalovchi qo‘shimcha o‘zak hisoblanadi. Bu so‘z quyoshga o‘xshash, ya’ni chehrasi quyoshdek porlagan, ichki nuri yuziga chiqqan inson deganidir. Sug‘d yozma yodgorliklarida bu so‘zning *xwsnd* shakli saqlanib qolgan.[14] Fors tilida shod yoki xushnud so‘zlari ko‘proq ishlatiladi. Sug‘d tilida esa aynan *-and* affiksi bilan tugaydigan shakli (xursand) barqaror bo‘lgan va bugungi o‘zbek tilida bu ma’no shodlik tushunchasiga to‘liq ko‘chgan.

Tilimizdagi cho‘pon so‘zi ham sug‘diy ta’sirga ega so‘z hisoblanadi. Xristian sug‘d tekstlarida *xushpan*, mug‘ tekstlaridan A-4 hujjati o‘ng sahifasining 2 - qatorida *ag‘ushpan*. Hozirgi o‘zbekchadagi *cho‘pon* so‘zi sug‘dcha *xush* yoki *xshupan* so‘zining davomchisidir.[15]

Qadimgi turkiy tilga mansub deb qaraladigan va bir qancha qadim turkiy manbalarda (Kultegin toshbitigi, Mahmud Koshg‘ ariy “Devonu lug‘otit-turk”) uchraydigan *xotin* so‘zining ham kelib chiqishi haqida mog‘ul yoki sug‘diy kabi bir qancha versiyalar mavjud. Xotin so‘zining sug‘diy kelib chiqishi mumkinligi nazariyasi ingliz sharqshunosi

[12] Cheung J. Etymological Dictionary of the Iranian Verb.-Leiden Boston.:BRILL,2007.P-13.

[13] MacKenzie D. N. A concise pahlavi dictionary.-London.:Oxford university press,1971.P-95.

[14] Gharib B.Sogdian dictionary. -Tehran.:Farhangan Publications,1995. P-438. 10778

[15] Is’hoqov, M. Unutilgan podsholikdan xatlar. Toshkent, Fan: 1992. 53 – b.

va turkolog Gerard Clausonga tegishli. Clauson o‘z tadqiqotida xotin so‘zini shubhasiz sug‘diy so‘z deb ataydi va bu so‘z sug‘dchada *xo‘jayin* ma’nosini anglatuvchi *xwt’y* so‘ziga bog‘liq bo‘lib *xwt’yn, xwat’yn* shaklida *xo‘jayinning xotini* ma’nosini anglatishi haqida yozadi.[16] Buxoroni boshqargan buxorxudotlar sulolasi vakili Bidun buxorxudot vafotidan arablar istilosiga qadar Bidunning xotini Xutak Xotun (673–695) Buxoroda hukmronlik qilgan. Buxorxudotlarga sug‘d tilli sulola deb qaraladi, ayni paytda *xatun* so‘zi ham sug‘dcha hukmron ayol, hukmronning ayoli ma’nosidagi *xwat’yn* so‘zidan turkchaga o‘zlashgan degan qarash mavjud. Shuningdek bu so‘zning sug‘dcha *γ’twnh,*[17] *x’twn* [18] shakllari ham ma’lum.

Xulosa. Mazkur maqolada o‘zbek tili leksikasidagi qadimgi sugʻdiy qatlamga mansub so‘zlar tilshunoslik metodologiyasi nuqtai nazaridan tahlil qilinib, ularning fonetik, semantik va geografik dalillar asosida tasniflanishi amalga oshirildi. An’anaviy leksikografiyada forsiy yoki umumeroniy qatlamga nisbat berilgan bir qator so‘zlarning sug‘diy tilga bevosita borib taqalishi yoki kamida sug‘diy vositachilik orqali o‘zbek tiliga o‘tganligini ilmiy asosda isbotlash imkoniyati mavjudligi ko‘rsatildi. Tadqiqotning asosiy metodologik xulosasi shundan iboratki, umumeroniy ildizga mansub so‘zlarning o‘zbek tiliga o‘tish yo‘lini faqatgina fors-tojik vositachiligiga nisbat berish maqsadga muvofiq emas. Maqola o‘zbek tilshunosligida sug‘diy leksik merosni o‘rganish bo‘yicha yanada keng qamrovli va tizimli tadqiqotlar o‘tkazilishi zarurligini ko‘rsatib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1) Gharib B.Sogdian dictionary. -Tehran.:Farhangan Publications,1995. P - 473.

2) Shaw, R.B.On the Ghalchah Languages (Wakhi and Sarikoli). Journal of the Asiatic Society of Bengal, XLV. Calcutta, 1876. P - 403.

3) Бартольд В. В. Сочинения. Т. II. Москва: Издательство восточной литературы, 1963. С - 1020.

[16] Clauson, G. A Dictionary of Pre-Thirteenth Century Turkish.- Oxford.: At the clarendon press, 1972. 602-603 p.

[17] Gharib B.Sogdian dictionary. - Tehran.:Farhangan Publications, 1995. P-161. 4070

[18] Gharib B.Sogdian dictionary. - Tehran.:Farhangan Publications, 1995. P-431. 10605

4) Xudoyberganov R. X, Uluqov N va boshqalar (mualliflar jamoasi). O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ ati.-Toshkent.:Donishmand ziyosi, 2022. B - 623.

5) Gershevitch I.A. Grammar of Manichean Sogdian. Oxf., 1954. P – 306.

6) Кораев С. Ўзбекистон вилотлари топонимлари.-Тошкент.:O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi,2005. 237 – B.

7) G‘oyibov B.Sug‘d tarixidan lavhalar.-Samarqand.:SamDu,2020.175 b.

8) Cheung J. Etymological Dictionary of the Iranian Verb.-Leiden Boston.:BRILL, 2007.P-600.

9) MacKenzie D. N. A concise pahlavi dictionary.-London.:Oxford university press,1971.P-235.

10) Is’hoqov, M. Unutilgan podsholikdan xatlar. Toshkent, Fan: 1992. 55 - b.

11) Clauson, G. A Dictionary of Pre-Thirteenth Century Turkish.- Oxford.: At the clarendon press, 1972. P – 1047.

12) Буянер Д. Б. Этимология некоторых индоиранских культурных терминов и теория индоиранского субстрата. I. *Hišti- / Hišta-“кирпич”*.Журнал: Индоиранские языки 2 (1), 2026. С - 129-166.

13) Gnoli, Gherardo. "DAHYU." *Encyclopaedia Iranica*. Published December 15, 1993. https://doi.org/10.1163/2330-4804_EIRO_COM_7959